



MUMTOZ ADABIYOTDA TALMEH SAN'ATI

Charos Abdurayimova Faxriddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti ,

Tarix va filologiya fakulteti, O'zbek tili va

adabiyoti yo'nalishining 2-kurs talabasi

e-mail:abdurayimova5555@gmail.com

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan talmeh san'atining nazariy asoslari, shakllanish jarayoni va adabiy-estetik funksiyasi yoritilgan. Xususan, Navoiy, Jomiy, Bedil kabi mumtoz ijodkorlar asarlarida talmeh san'ati misollar bilan tahlil etilib, ushbu uslubning o'quvchi tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatishi ochib beriladi. Maqolada talmeh san'atining arab, fors va o'zbek adabiyotidagi evolyutsiyasi, diniy-mifologik, tarixiy va falsafiy asoslari haqida ham batafsil to'xtalinadi.

Kalit so'zlar:

Talmeh, mumtoz adabiyot, badiiy san'at, Navoiy, tarixiy kontekst, diniy obrazlar.

Abstract: This article explores the art of talmeh as an important rhetorical device in classical literature. It presents theoretical foundations and historical development of talmeh in Arabic, Persian, and Uzbek classical poetry. Special attention is given to works of classical authors like Alisher Navoi, Jami, Bedil, and



Mashrab. The article highlights the artistic and cognitive impact of talmeh on the reader and discusses its functions in conveying historical, religious, and philosophical allusions.

Keywords:

Talmeh, classical literature, rhetorical art, Navoi, allusion, historical and religious references.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматривается искусство тальме как важный риторический приём в классической литературе. Проанализированы его теоретические основы, развитие в арабской, персидской и узбекской классической поэзии. Особое внимание уделяется творчеству таких классиков, как Алишер Навои, Джами, Бедиль и Машраб. Выявлены функции тальме в передаче религиозных, исторических и философских аллюзий и его воздействие на восприятие читателя.

Ключевые слова:

Тальме, классическая литература, риторическое искусство, Навои, аллюзии, религиозные и исторические образы.

Kirish:

Adabiy-badiiy ijodda koʻhna madaniyat va tarixiy xotirani aks ettirish usullaridan biri bu — talmeh sanʼatidir. Bu sanʼat turining asosiy mohiyati tarixiy, diniy, mifologik yoki adabiy voqea, obraz yoki shaxsga ishora qilishdir. Talmeh oʻquvchidan keng madaniy savodxonlikni, chuqur bilim va badiiy tafakkurni talab qiladi. Mumtoz adabiyotda ayniqsa, Alisher Navoiy, Jomiy, Bedil kabi allomalarning ijodida talmeh sanʼati juda keng va nozik shakllarda qoʻllanilgan. Ushbu maqolada talmehning nazariy asoslari, u bilan bogʻliq adabiy-estetik



jarayonlar va talmehning o'zbek adabiy merosidagi o'rni tahlil qilinadi. Talmeh (arab. – “isora”, “imlo”) – bu badiiy adabiyotda ko'p hollarda biror tarixiy voqea, shaxs yoki diniy/falsafiy obrazni ochiq aytmay, ishora orqali berish san'atidir. Bu san'at turi arab va fors adabiyotida qadimdan mavjud bo'lib, so'ngra o'zbek mumtoz she'riyati orqali rivoj topgan. Talmeh odatda tafsir, hadis, tarix, falsafa va tasavvuf ilmlariga asoslangan holda ishlatilgan bo'lib, shoir o'z bilimini va o'quvchining tafakkur darajasini sinaydi. Talmeh san'atining badiiy adabiyotda qo'llanilishi ko'p qirrali xususiyatga ega.

Uning qo'llanilishi turli davrlarda turlicha namoyon bo'lgan va rivojlangan. Sharq

mumtoz adabiyotida talmeh san'atining qo'llanilishi asosan diniy, tarixiy va afsonaviy obrazlar orqali amalga oshirilgan. Masalan, Alisher Navoiy ijodida Iskandar, Jamshid, Hotam kabi tarixiy shaxslarga, Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun kabi mashhur qissalarga ishoralar ko'p uchraydi. Bu ishoralar orqali shoir o'z fikrlarini yanada ta'sirchan va chuqur ma'noli qilib ifodalashga erishgan. Bugungi kun shoirlari talmeh san'atini chuqur falsafiy fikrlarni ifodalash vositasi sifatida ham qo'llamoqda.

Talmeh san'atining qo'llanilishida quyidagi asosiy yo'nalishlarni kuzatish mumkin:

Birinchidan, tarixiy shaxslar va voqealarga ishora qilish orqali zamonaviy masalalarni yoritish. Bu usul orqali shoirlar o'tmish va bugun o'rtasidagi parallel bog'liqliklarni ochib beradilar. Masalan, zamonaviy shoirlar Amir Temur, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarimizga ishora qilish orqali bugungi kun yoshlarini ma'naviy kamolotga undamoqdalar.

Ikkinchidan, diniy-afsonaviy syujetlardan foydalanish orqali umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash. Bu yo'nalishda Qur'oni Karim qissalari, payg'ambarlar



hayoti, tasavvuf ta'limotiga oid tushunchalar talmeh obyekti sifatida qo'llaniladi. Bunday talmehlar asarning ma'naviy-axloqiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, jahon adabiyoti va madaniyatiga oid ishoralarning kirib kelishi. Globallashuv sharoitida o'zbek shoirlari Shekspir, Gyote, Pushkin kabi jahon adabiyoti namoyandalariga, ularning mashhur asarlariga ham ishora qilmoqdalar. Bu esa milliy adabiyotimizning jahon adabiyoti bilan uyg'unlashuvini ta'minlamoqda.

To'rtinchidan, zamonaviy fan-texnika yutuqlariga, ijtimoiy-siyosiy hodisalarga ishora qilish. Bu yangi turdagi talmehlar zamonaviy she'riyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Internet, kosmos, atom energiyasi kabi zamonaviy tushunchalar ham talmeh obyektiga aylanmoqda.

Talmeh san'atining zamonaviy adabiyotdagi o'rni va ahamiyati shundan iboratki, u an'anaviylik va zamonaviylikni, milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. U badiiy asarning g'oyaviy-estetik qimmatini oshirish bilan birga, kitobxonning intellektual salohiyatini boyitishga, uning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, talmeh san'ati zamonaviy she'riyatda kompozitsion yaxlitlikni ta'minlovchi vosita sifatida ham qo'llanilmoqda. Bir she'rda turli davr va makonlarga oid talmehlarning qo'llanilishi asarning ko'p qatlamli ma'no kashf etishiga imkon yaratadi.

Talmeh va boshqa badiiy san'atlar o'rtasidagi farq;

Talmeh ko'pincha tazod, kinoya, istehzo kabi san'at turlari bilan adashtiriladi. Ammo talmehda ma'lumot yashiringan yoki noaniq emas, balki ishaora orqali beriladi. Bu esa uni boshqa san'at turlaridan ajratib turadi. Talmehda voqelik ma'lum bir tarixiy, diniy yoki falsafiy kontekstda aks ettiriladi.



Arab adabiyotida talmehning vujudga kelishi

Talmeh san'ati arab adabiyotida, ayniqsa, Qur'on oyatlari, hadislar, tarixiy voqealar va islomiy obrazlar asosida shakllangan. Arab shoirlari, jumladan, Al-Mutanabbiy, Imru'ul Qays, Al-Buhturiy kabi ijodkorlar o'z she'rlarida o'quvchining bilim va tafsir darajasiga murojaat qilgan holda talmeh uslubidan foydalanganlar. Arab mumtoz she'riyati talmeh orqali ijtimoiy-huquqiy, diniy va siyosiy mavzularni chuqur ifodalash imkonini bergan.

Misol:

“Yo rab, Bilol sadosi yangragandek uyg'on vijdonim!”

Bu misrada “Bilol” — Rasulullohning muazzini bo'lib, diniy uyg'onish ramzidir. Shoir bu obraz orqali diniy hushyorlikka chaqiradi.

Fors she'riyatida talmehning mukammallashuvi

Fors adabiyotida talmeh yanada murakkab va badiiy jihatdan nafis tus olgan. Rudakiy, Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar Qur'on, hadis, tarixiy voqealar, mitologik obrazlar orqali chuqur talmehlarni yaratganlar. Ayniqsa, Sa'diy va Hofizning g'azallarida diniy va tarixiy ishoralar poetik vosita sifatida keng qo'llaniladi.

Masalan, Hofiz:

“Nushiravon adolatidan so'z ochsam, Zohid menga Abu Jahldek qaramasmi?” Bu yerda “Nushiravon” – adolat timsoli, “Abu Jahil” – johillik, zulm ramzi. Hofiz zamonaviy zolimlarni diniy libosga o'ralganlar sifatida fosh etadi.

Alisher Navoiy ijodida talmeh.

Navoiy talmeh san'atining o'zbek adabiyotida yuksak namunasini yaratdi. U diniy va tarixiy obrazlarni chuqur bilgan, ularni zamonaviy hayotga moslashtirgan.



“Xamsa”, “Lison ut-Tayr”, “Mezon ul-Avzon”, “Xazoyin ul-Maoniy” asarlarida talmeh san’ati keng qo‘llaniladi.

Misol:

“Layli bilan Majnunni qilmadim hijron ila yod...”

Bu yerda “Layli – Majnun” hikoyasi orqali o‘zining ilohiy muhabbat va sadoqat tushunchasini beradi.

Bedil, Mashrab va boshqa shoirlar.

Bedil — talmeh san’atini falsafiy chuqurlikda qo‘llagan. Uning she’riyatida Qur’on va hadisga ishoralar bor, ammo bu ishoralar tasavvufiy-ruhiy talqin oladi. Bedil „Irfon“ („Bilim“, 1711 – 1712; „Komde va Mudan“, „Nukot“ asarlari ham shuning tarkibida) dostonida falsafa, tarix, tabiiyot, adabiyot va ilohiyotning xilma-xil masalalariga to‘xtalgan. Asarda borliq, materiya, zarrachalar, jonli mavjudot va narsalar tabiati haqida, nabotot to‘g‘risida so‘zlaydi. Borliq, yo‘qlik, fano, baqo singari falsafiy masalalar haqida fikr bildiradi. Til va tilning xizmati, ahamiyatini talqin etadi, hissiy va aqliy bilish manbai, tuyg‘u, tushuncha, aqd haqida muhokama yuritadi. U hind falsafasidagi „tanosux“ nazariyasi hamda islom falsafasidagi „tavakkul“ ta’limotini tanqid qiladi. Tabiat hodisalarini tabiatning o‘zini o‘rganish yo‘li bilan tushuntirish lozim deb biladi. Uningcha, dunyo abadiy bo‘lib, to‘xtovsiz harakat qiladi va o‘zgarib turadi. „Komde va Mudan“ dostonida do‘stlik, muhabbat, vafodorlik, adolat, ilm-ma’rifat masalalari aks etgan. „Nukot“ („Hikmatli so‘zlar“) asarida esa Bedil qarashlarini yakunlab, umumlashtirgan.

Mashrab esa xalq ruhiyatiga yaqin, ammo zamonaviy dindorlik va ijtimoiy muammolarga tanqidiy qarash bildirgan holda talmehlar yaratadi. Masalan, Ibrohim payg‘ambar, Iso, Yusuf qissalari orqali insoniy adolat va sabr-qat’iyat targ‘ib qilinadi.



Talmehning badiiy-estetik vazifasi. Talmeh o‘zining ishora asosida qurilgan mazmuni bilan nafaqat matnni murakkablashtiradi, balki o‘quvchining estetik zavqini oshiradi. Talmeh san’ati orqali shoir yoki yozuvchi o‘z fikrini aniq aytmasdan, o‘quvchining bilim doirasiga suyanib, ma’no hosil qiladi. Bu esa matnni ko‘p qatlamli, ko‘p ma’noli qiladi.

Masalan, Navoiy quyidagicha yozadi:

“Isrofil anga surnay chalmas, Haq nazari tushmagan ko‘ngilga.”

Bu yerda “Isrofil” — qiyomat kuni surnay chaluvchi farishta. Bu obraz orqali “ruhiy o‘lik” insonlarning haqiqatga yopiqqligini bildiradi.

Talmehda semantik ko‘p qirralilik.

Talmehda birgina obraz yoki voqea orqali ko‘p ma’no ifodalanadi: diniy, siyosiy, axloqiy va falsafiy. Bitta talmeh bir necha darajadagi tushunchalarni mujassamlashtirishi mumkin. Ayniqsa, Bedil she’rlarida bitta obraz o‘zida Qur’oniylar ma’nolar, tasavvufiy ma’no, va hatto ijtimoiylar kinoyani ham qamrab oladi.

MUMTOZ ADABIYOTDAGI TALMEH NAMUNALARINING TAHLILI

Navoiy g‘azallarida:

Navoiyda talmeh nafaqat obrazli, balki axloqiy-falsafiy yondashuvni ham ifoda etadi:

“Yo Rab, aning ko‘nglini Qur’on ila muattar qil...”

Bu misrada Qur’on — ruhiy poklanish timsoli, bu esa inson qalbining axloqiy poklanishi kerakligini anglatadi.

Bedil g‘azallarida:

“Ka’ba emas bu jahon, agar yo‘q ichra Haq nuri.”



Bu yerda “Ka’ba” – ilohiy markaz, ammo Bedil uni inson qalbiga qiyoslaydi. Haq yo‘q bo‘lsa, Ka’ba ham jismu jondan ajralgan shakldir.

Mashrab g‘azallarida:

“Yusuf kabi sotilsa-da, sabr qil...”

Bu yerda “Yusuf” obrazini sabr timsoli sifatida keltirib, insonni boshidan o‘tgan azob-uqubatlarga sabr bilan yondashishga undaydi.

Mumtoz adabiyotda diniy obrazlar:

Alloh (Xudo):

Mumtoz adabiyotda Alloh obraz sifatida emas, balki mutlaq ilohiy qudrat, rahmat va adolat timsoli sifatida tilga olinadi. Shoirlar ko‘pincha Allohga bo‘lgan muhabbat, iltijo, tavba va ibodat ruhida yozadilar. Navoiy she‘riyatida Allohga iltijolar chuqur falsafiy va tasavvufiy ma’nolarni anglatadi.

Payg‘ambarlar:

Hazrat Muhammad (s.a.v.). Uning nomi tilga olinganda adabiyotda eng ko‘p ishlatilgan diniy obrazlardan biri bo‘ladi. Mumtoz adabiyotda Muhammad (s.a.v.) go‘zallik, rahm-shafqat, haqiqat va ilohiy muhabbat timsoli sifatida tasvirlanadi. Navoiy, Jomiy, Mashrab ko‘plab she‘rlarida “Ahmad”, “Mustafo”, “Habib” kabi laqablar orqali uni talmeh sifatida keltiradilar.

Yusuf (a.s.). Yusuf obrazida go‘zallik, sabr, fitna, fidoyilik va oxir-oqibat najot g‘oyasi mujassam. Ko‘plab g‘azallarda “Zulayho”, “zindon”, “qo‘shiq”, “bradarlar” talmeh sifatida ishlatiladi.

Ibrohim (a.s.). Olovdan najot topgan payg‘ambar. Ko‘pincha jasorat, sabr va iymon timsoli sifatida keltiriladi.



Iso (a.s.).Shifo beruvchi, mehribon va ruhiy poklik timsoli. “Masih”, “nafas”, “ruhlik” soʻzlari orqali ishora qilinadi. Bedil va Mashrab uni koʻpincha ilohiy ilhom timsoli sifatida talqin qilgan.

Muso (a.s.) va Firʻavn

Muso — iymon va azodlik; Firʻavn — kibr va zolimlik obrazlari. Ularning qarama-qarshiligi koʻpincha diniy-axloqiy ziddiyatlar ifodasi sifatida ishlatilgan.

Farishtalar

Jabroil.Vahiy olib keluvchi farishta. Ilm va ilohiy ilhom ramzi sifatida talmehda uchraydi.

Isrofil.Qiyomat kuni surnay chaluvchi farishta. Shoirlar uni ruhiy uygʻonish va haqiqatni eslatish timsoli sifatida ishlatganlar.

Azroil.Oʻlim farishtasi. Adabiyotda hayot va oʻlim orasidagi sirli chegara sifatida uchraydi

Misollar:

Navoiy:

“Layli bilan Majnun kabi qilsang jahonni toʻl...

Azroil shirin soʻz aytsin, yo Habib Allohni til!”

Mashrab:

“Yusufday sotildim, ammo qadrimni bilmaydi hech kim,

Muso kabi yuribman, toʻgʻri soʻz — asoyim men.”

Talmehda diniy obrazlarning vazifasi:



1. Ma'naviy chuqurlik kiritadi
2. Madaniy xotirani uyg'otadi
3. O'quvchidan bilim talab qiladi
4. She'riy matnni ko'p ma'noli qiladi
5. Falsafiy va ruhiy mazmun beradi

XULOSA:

Mumtoz adabiyotda talmeh san'ati badiiy mahoratning eng nozik va murakkab shaklidir. Bu san'at orqali shoir o'z davrining muhim diniy, siyosiy va axloqiy g'oyalarini o'quvchiga yetkazgan. Talmeh san'ati o'quvchini fikrlashga, tarixiy va diniy bilimlarni esga olishga, matnni chuqurroq anglashga undaydi. Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab kabi allomalarning asarlari bu borada bebaho manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. "Xazoyin ul-maoniy". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1987.
2. Abdurahmon Jomiy. "Bahoriston". – Tehron: Kitobxona Nashriyoti, 1978.
3. Bedil. "Kulliyot". – Dushanbe: Irfon, 1972.
4. Mashrab. "Devon". – Toshkent: Fan, 1995.
5. Rahmonov, A. "Talmeh san'ati va uning poetik qirralari". – Adabiyotshunoslik jurnali, 2020.
6. Qur'on va tafsirlar. – Turkiya Diyanet Vaqfi, 2006.
7. Navoiy asarlari izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2001.